

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUG‘ANIYEV BEKZOD BURXON UG‘LI

**O‘QUVCHILARNING LOYIHALASH MADANIYATINI
ROBOTOTEXNIKANING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abdug‘aniyev Bekzod Burxon ug‘li

О‘quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari
vositasida rivojlantirish metodikasi..... 3

Абдуганиев Бекзод Бурхон угли

Методика развития культуры проектирования учащихся посредством
дидактических возможностей робототехники..... 23

Abduganiyev Bekzod Burkhon ugli

Methodology for developing a student design culture through the didactic capabilities
of robotics 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работы

List of published works..... 49

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Red.82.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUG‘ANIYEV BEKZOD BURXON UG‘LI

**O‘QUVCHILARNING LOYIHALASH MADANIYATINI
ROBOTOTEXNIKANING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2829 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.cspi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Rabbim Mixliyevich
texnika fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar:

Axmedjanov Dilmurod G‘ulomovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yakubboyeva Nafisa Saxobiddinovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Red.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “_____” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. (Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. (Tel. (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil “_____” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

J.E.Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d.professor

D.M.Maxmudova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d. professor

R.A.Eshchanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida elektron o'quv-metodik materiallarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalar vositasida o'quv loyihalarini tayyorlash, o'quvchilarni loyihalash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, mashg'ulotlarni samarali olib borish maqsadida multimedia, axborot tizimlaridan keng ko'lamda va ommaviy ravishda foydalanish vazifalari qo'yilmoqda. Bugungi kunda Angliya, Germaniya, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Italiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda turli yosh toifasidagi o'quvchilar robototexnika (Lego Mindstorms EV3, LegoWedo, Huna, Arduino, Matrix, Lego Digital Designer, TRIK Studio, VEX) bilan shug'ullanish, robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirish masalalari ushbu davlatlarning universitetlari, ilmiy tadqiqot markazlari hamda ta'lim jarayonida tadqiq etib borilmoqda. Zamonaviy ilmiy va texnologik yutuqlar asosida mahalliy muhandislik korpusi robototexnika sohasida izlanishlarni jadallashtirish hisobiga o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda maktab o'quvchilarining loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, maktab o'quvchilarini yangi innovatsion texnologiyalar sharoitlariga tayyorlash, robototexnika kabi texnik innovatsion yo'nalishlar bo'yicha robotlashtirilgan muhitning bo'lg'usi iste'molchilari sifatida o'qitish va tarbiyalash, robot va robotlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqaruvchisi, kelajak mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. O'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda sinfdagi darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv jarayonini amalga oshirishda, robototexnik qurilmalar harakatlarini loyihalashtirish va modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarning ilmiy asoslarini o'zlashtirishni talab etadi.

Mamlakatimizda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishning zarur shart-sharoitlarini yaratishga, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, didaktik-metodik ta'minotni ta'minlashga, me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishga doir qator vazifalar amalga oshirildi. Ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri «2030 yilgacha qo'shimcha ta'lim muassasalarida robototexnika, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi zamonaviy to'garaklar ulushini 20 foizga oshirish»¹ dan iborat bo'lib, bu borada maktab informatika va axborot texnologiyalari fanidan dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda loyihalash madaniyatiga oid ko'nikmalarni rivojlantirish, didaktik va metodik imkoniyatlarini kengaytirish, robototexnikaning didaktik imkoniyatlari asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami

to'g'risida" gi PF-60-son, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son va 2019 yil 9 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5815-son Farmonlari, 2019 yil 30 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4467-son va 2019 yil 26 noyabrdagi "Zamonaviy maktab" larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4537-son Qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mamlakatimizda loyihaviy yondashuv nazariyasini ishlab chiqish, ta'limda loyihaviy va ijodiy faoliyatini amalga oshirish mazmuni, metodlari, vositalari, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishning ayrim masalalari bo'yicha vatanimiz olimlaridan O'.Q.Tolipov, I.M.Rasulov, O.A.Qo'ysinov, N.A.Muslimov, J.E.Usarov, H.O.Jo'rayev, J.E.Pardaboyev va boshqalarning ishlarida yoritib berilgan. Ta'lim tizimida o'quv robototexnikasini qo'llash muammolari bo'yicha vatanimiz olimlari H.O.Jo'rayev, O.A.To'ychiyev, G.Y.Bo'ronova, B.B.Mo'minovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, L.S.Vigotskiy, U.Kilpatrik, E.Kollings, Y.S.Polat, M.V.Krupenina, V.F.Sidorenko, T.L.Stenina, N.V. Yemelyanova, V.V.Tarapata, N.N.Samilkina, S.A.Filippov, N.V.Yemelyanova, D.G.Koposov, Y.A.Vinnitskiy, A.A.Salahova va boshqalarning ishlarida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan.

O'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish masalalari xorijiy davlatlar olimlardan R.Corke, M.Margolis, R.Siegward, H. Choset, K.Lynch, S.Hutchinson, B.Sicilliano, M.S.Khine, M.S.Shannon, M.A.Hudsonlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida qaralgan.

Olib borilgan tadqiqot muammosiga oid ilmiy izlanishlar va ilmiy manbaalar tahlili shuni ko'rsatib berdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqoti ishi Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot rejasining "Uzluksiz ta'limda informatika raqamli ta'lim texnologiyalar fanlari tizimida fan, ta'lim va texnologiyalar integratsiyasini ta'minlash muammolari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning

loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish muammosining pedagogik va psixologik adabiyotlardagi tahlilining talqini;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida kengaytirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish;

robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarini ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tajribaning yakuniy natijasiga asosan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish jarayoni belgilanib, unda tajriba-sinov ishlariga Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi 6 ta umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 591 nafar V-VII sinf o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, maxsus, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili; pedagogik holatlarni modellashtirish; davlat ta'lim standartlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari tajribasini umumlashtirish; tajribali o'qituvchilar faoliyatini kuzatish, pedagoglar bilan suhbat o'tkazish; o'qituvchilar va o'quvchilar bilan pedagogik so'rovnomalar, tajriba-sinovni o'tkazish va uning natijalarini matematik-statistik metodlari yordamida qayta ishlash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini vertikal va gorizontal yo'nalishda kengaytirib borish mantiqiga ustuvorlik berish asosida darsdagi aniq pedagogik vaziyatga javob bera oladigan tarzda improvizatsiya qila olish funksiyasiga ustuvorlik berilgan ta'lim texnologiyalari (virtual xarita, harakatlarni kodlash, samarali amaliy loyiha) aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish modeli faoliyatga aloqador parametr va indikatorlar darajalari ko'rsatgichlarining mazmuniy yaroqliligi, ishonchligi va optimalligini strategik prognozlash asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim muhitida o'quvchilar loyihalash madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish

bosqichlari ta'limiy imkoniyatlarini pedagogik jarayonga integrallash orqali aniqlashtirilgan;

maktab o'quvchilarining loyihalash madaniyati sifatlarini robototexnikaning ta'limiy imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy ta'minoti dasturiy vositalarning tarkibiga adaptiv, reproduktiv, kreativ kabi amaliy ko'nikma va malakalarni namoyish etishga yo'naltirilgan topshiriqlarni, integrallashgan testlar va korreksiyalash elementlarini kiritish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

loyihalash faoliyatini tavsiflovchi parametrlar va indikatorlarni aniqlashtirish asosida ishlab chiqilgan o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari asosida rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

robototexnikaning informatika va axborot texnologiyalari fani o'quv materiallari bilan integratsiyasini ta'minlash asosida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan "Scratch 3.0 dasturlash muhitida dastur tuzishni o'rgatish" nomli o'quv-qo'llanma ishlab chiqilgan va maktab amaliyotiga joriy etilgan;

robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib maktab o'quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha sinfdagi darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda loyihalash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va pedagogik-tajriba sinov ishlarida amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotda tatbiq etilgani; mavzuga oid o'quv materiallarining nashr etilganligi va ta'lim jarayoniga joriy qilinganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; olingan natijalarning matematik-statistik qayta ishlov berilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish modeli, bosqichlari va ta'lim texnologiyalari yaratilganligi, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishga oid maxsus interaktiv metodlardan foydalanilganligi, loyihalash madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholashga imkon beruvchi me'zonlar belgilanganligi, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari ilmiy-metodik ishlanmalar bilan ta'minlangan, fan mazmuni boyitilgan, o'quvchilar robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida loyihalash madaniyatiga ega bo'lgan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sifat va samaradorlik oshirilgan, o'quvchilarda loyihalash madaniyatini ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishga xizmat qilishi hamda zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O‘quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

o‘quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini vertikal va gorizontali yo‘nalishda kengaytirib borish mantiqiga ustuvorlik berish asosida darsdagi aniq pedagogik vaziyatga javob bera oladigan tarzda improvizatsiya qila olish funksiyasiga ustuvorlik berilgan ta‘lim texnologiyalari hamda o‘quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish modeli faoliyatga aloqador parametr va indikatorlarni darajalari ko‘rsatgichlarining mazmuniy yaroqliligi, ishonchligi va optimalligini strategik prognozlashga doir takliflar maktab 5-7 sinflar informatika va axborot texnologiyalari darsliklari mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazining 2023-yil 10-martdagi 01/11-01/9-151-son ma‘lumotnoma). Natijada, tegishli o‘quv fanlari mazmuni boyitilgan;

raqamli ta‘lim muhitida o‘quvchilar loyihalash madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari ta‘limiy imkoniyatlarini pedagogik jarayonga integrallashga doir takliflar “Scratch 3.0 dasturlash muhitida dastur tuzishni o‘rgatish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazining 2023-yil 28-martdagi 1-son yig‘ilish qarori). Natijada, robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish uchun o‘quvchilarga pedagogik shart-sharoitlar yaratilib, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda ijodiy yondashuvlar orqali o‘quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlanish samaradorligiga erishilgan;

maktab o‘quvchilarining loyihalash madaniyati sifatlarini robototexnikaning ta‘limiy imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy ta‘minoti dasturiy vositalarning tarkibiga adaptiv, reproduktiv, kreativ kabi amaliy ko‘nikma va malakalarni namoyish etishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni, integrallashgan testlar va korreksiyalash elementlarini kiritishga doir takliflaridan 2021-2022 yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan FZ-2019080214-sonli “Favqulodda vaziyatlarda qo‘llaniluvchi ko‘p funksiyali robot yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2023 yil 3 martdagi 651/05-son ma‘lumotnomasi). Natijada, maktab informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha sinfdagi darslar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida o‘quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti belgilangan, tadqiqot ishining Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning **“Maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning mazmuni, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish bosqichlari va texnologiyalari, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliyotdagi holati o'rganilgan.

Zamonaviy maktabning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning ijodiy tashabbusi va mustaqilligini, loyihalash faoliyatiga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirish hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda bugungi kunda loyihalash madaniyatining roli va o'rni tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotda, o'quvchilarda robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlanadigan loyihalash madaniyati sifatlarining aniqlanishiga ham alohida e'tibor qaratildi hamda muammoning nazariy va amaliy tavsifini inobatga olgan holda, o'quvchi shaxsining loyihalash madaniyati negizida eruditsiya, tasavvurning kengligi, emotsional rivojlanganlik, texnik layoqat, intuitsiya, mantiqiy fikrlash qobiliyati, texnologik qobilyat, refleksiv qobilyat kabi sifatlar aks etishi aniqlandi. Shuningdek, dasdagi aniq pedagogik vaziyatga javob bera oladigan ta'lim texnologiyalari aniqlashtirildi.

Tadqiqotchilarning fikrlari asosida dissertatsiyada: xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarda bo'lgani kabi pedagogikada «loyihalash», «loyihalash madaniyati» tushunchalarining ilmiy-nazariy talqini, ta'lim tizimining turli bosqichlari, xususan, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy ta'lim bosqichlarida ta'lim oluvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirish masalasi keng ko'lamda o'rganilgan; mavjud tadqiqotlarda turli yoshdagi o'quvchilar va talabalarda loyihalash madaniyatini rivojlantirish muammosining yechimi sifatida amaliy takliflar ishlab chiqilgan, ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, loyihalash madaniyati pedagogik jarayonlarni improvizatsiya qila olish xususiyatlari aniqlangan.

Loyihalash madaniyati – loyihalash faoliyatini tashkil etish jarayoni uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma-malakalarning yuqori darajasi bo‘lib, u loyihalash faoliyatining ijtimoiy hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar, texnik me‘yorlar, zamonaviy loyihalash qoidalariga mosligini ifodalaydi.

Loyihalash madaniyati asosini quyidagi tushunchalar tashkil etadi: loyiha yoki loyihalashtirish g‘oyasi; umumiy va xususiy maqsadlar; loyihalash faoliyati; vositalar majmui; loyihalash faoliyatiga doir ko‘nikma va malakalar; ijodiy va innovatsion yondashuv; ma‘lum sohaga oid hodisa, jarayon va tizimni bashoratlash; muayyan hodisa, jarayon va tizim bo‘yicha tashkil etiladigan faoliyatni rejalashtirish; ma‘lum sohaga oid hodisa, jarayon va tizimni shartli belgi, sxema va timsollar yordamida loyihalashtirish; ko‘zda tutilayotgan hodisa, jarayon va tizimni modellashtirish; loyiha (model, dastur).

Zamonaviy insonda “loyihalash madaniyati” ni shakllantirish va rivojlantirish muammosining turli jihatlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijalari asosida “o‘quvchining loyiha madaniyati” tushunchasi uchun quyidagi ishchi ta‘rif qabul qilindi: “o‘quvchining loyihalash madaniyati” - bu aniq qadamlarni chekli texnologik bajarish orqali natija olishni ko‘zda tutuvchi, ta‘limiy muhitda tashqi ta‘sirlar vositasida tabiiy ehtiyojlardan shakllanadigan individning o‘zida vujudga keladigan muammolarni yechishga yo‘naltirilgan qidiruv-tadqiqotchilik faoliyat bilan bog‘liq muhim individual usullar va fikrlash shakllari majmuasi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida o‘quvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirishda ular uchun ahamiyatga ega dolzarb muammolarni aniqlash, loyiha yaratishga doir qarorni qabul qilish, loyiha uchun tanlanayotgan muammoni hal qilish uchun mavjud resurslar va ularning imkoniyatlarini baholash, o‘quv jarayonining mazmun mohiyatini vertikal va gorizontal yo‘nalishda boyitish, loyihani tegishli subyektlarga taqdim etish, ilgari surilgan g‘oyalarni himoya qilish, muammoni hal etish yo‘lida amaliy faoliyat, ya‘ni tajriba ishlarini yo‘lga qo‘yish, olingan natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish, yakuniy natijalarga ko‘ra umumiy xulosaga kelish va loyihalash faoliyati mahsuloti (amaliy yoki ilmiy tajriba mohiyatini yorituvchi konsepsiya, model, taqdimot, nashr ishi va boshqalar) ni yetakchi mutaxassislar yoki mas‘ul tashkilot muhokamasidan o‘tkazish, loyihalash faoliyatining baholanishiga erishish kabi malakalarning yuqori darajada o‘zlashtirilishini talab etadi.

Rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimida qo‘llanilayotgan Fable, Fischertechnik, Hiwonder, Huna, KEYi Tech, Lego Education, Makeblock, Matrix, Mobsya, Mojobot, Pitsco Tetrix, Arduino, Robotical, Robotis, Robo Wunderkind, Studica, Scratchduino, Ubtech, VEX Robotics, Robotrek, Evolvektor kabi robototexnika konstruktorlaridan Respublikamiz ta‘lim tizimining imkoniyatlari va milliy ta‘lim dasturi mazmunini inobatga olgan holda, Lego WeDo2.0, Lego Mindstorms, Arduino, VEX Robotics konstruktorlaridan foydalanish, robototexnika to‘garaklarini o‘qitishda nisbatan samarali va to‘garak ishtirokchilarining oson o‘zlashtirishlariga sabab bo‘lishini inobatga olib, ushbu konstruktorlardan foydalanish metodologiyasi tahlil qilindi.

Lego Education Mindstorms EV3ni o‘quv jarayonida qo‘llash murakkab muammolarni hal qilishni qiziqarli tadqiqot jarayoniga aylantiradi, bu nafaqat

o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishga, balki boshqa har qanday mavzularni o'rganish vositasini o'zlashtirishga imkon beradi. Lego Mindstorms EV3 platformasi ijodiy alternativ yechimlarni topish uchun noyob vosita sifatida ishlab chiqilgan, jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga, g'oyalarni birgalikda amalga oshirishga va loyiha faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Arduino – professional bo'lmagan robototexnika foydalanuvchilari uchun dasturiy va texnik ta'minotlar yigindisi. Arduino mutloq ochiq arxitektura bo'lib, undagi barcha konstruktor qismlari va dasturiy taminot ochiq tarqatiladi. U o'zining platasi va IDE-dasturlash muhitiga ega. Arduino muvaffaqiyatga erishiga sabab bo'luvchi loyihalar yaratish imkonini beruvchi platformalardan biridir.

Tahlil natijalariga ko'ra ular orasida Lego WeDo2.0, Lego Mindstorms, Arduino, VEX Robotics, Tetrax platformalar ijodiy loyihalar yaratish uchun katta didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlandi.

Tadqiqot ishining ushbu bobida ta'limiy robototexnika (robototexnikaning ta'limiy imkoniyatlari) quyidagicha aniqlashtirildi.

Ta'limiy robototexnika - bu fizika, mexatronika, texnologiya, matematika, informatika va axborot texnologiyalari haqidagi bilimlarni integratsiyalovchi, turli yoshdagi o'quvchilarni innovatsion ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etishga imkon beruvchi o'quvchilarga ta'lim berishning yangi fanlararo yo'nalishi.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha tashkil etiladigan sinfdagi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning ta'limiy imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini vertikal va gorizontal yo'nalishda kengaytirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'quv materiallarini improvizatsiya qila olish funksiyasiga ustivorlik berilgan holda aniqlashtirish zaruriyati asoslandi.

Dissertatsiyaning **“Ta'limiy robototexnika vositasida o'quvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik faoliyat o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning muhim omili, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning samarali shakllari, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishning samarali metod va vositalari o'rganilgan. Robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish vositasida o'quvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirishda ustuvor tamoyillarning inobatga olinishi belgilangan pedagogik-psixologik vazifalarning mavaffaqiyatli hal qilinishini ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual robototexnika vositasidan ijodiy foydalanish asosida o'quvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirishda quyidagi tamoyillardan foydalandik: fanlararo aloqadadorlik tamoyili; nazariy va amaliyot birligi tamoyili; ta'lim jarayoniga yagona, tabaqalashtirilgan yondashuv; maqsadga muvofiqlik va izchillik tamoyili; pedagogik boshqaruvni o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirish bilan qo'shib olib borish tamoyili; o'quvchilarning yosh xususiyati va ijodiy qobiliyatini inobatga olish tamoyili; guruhli va jamoaviy hamkorlik tamoyili; individual-ijodiy yondashuv tamoyili; o'quvchilarning intellektual faolligini rivojlantirish tamoyili;

o'quvchilar ijodiy imkoniyatlarini namoyish etish tamoyili; o'quvchilar ijodiy qobiliyati va virtual robototexnika intellektual imkoniyati birligi tamoyili; bellashuv tamoyili; o'quvchilar faoliyatini boshqarishda bevosita va parallel pedagogik harakatlarni birlashtirish; maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning qulayligi va maqsadga muvofiqligi tamoyili.

Loyihalash murakkab jarayon sanaladi. Binobarin, bu jarayonda ishlab chiqilayotgan loyiha mohiyatini to'la, batafsil va to'g'ri yoritish uchun belgilangan talablar, texnik me'yorlar, zamonaviy loyihalash qoidalarini hisobga olish zarur. Shu sababli o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish bosqichlarini aniqlash uchun ularning shaxsiy hayoti va o'quv-bilish faoliyatida inobatga olinishi shart bo'lgan talablar, texnik me'yorlar, loyihalash qoidalaridan xabardorliklarini aniqlash, bu boradagi mavjud bilimlarini yanada boyitib borish, o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarning amaliyotga tatbiq etilish darajasini tahlil qilish va baholashga e'tibor qaratildi. Shunga ko'ra, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratib chiqdik: 1) o'quvchilarning qiziqish doirasini, ular uchun dolzarb bo'lgan muammolarni aniqlash; 2) aniqlangan muammolar ustida izlanish ishlarini olib borish; 3) o'quvchini tanlangan muammoni detalli qayta ishlash bilan mashg'ul bo'lishga undovchi vaziyatni modellashtirish; 4) qidirish ishlari natijalarini loyiha darajasiga qadar formallashtirish; 5) loyiha ustida ishlash va produktiv natija olish; 6) loyiha natijalarini keng ommaga taqdim qilish; 7) bajarilgan loyiha ishini baholash va o'z-o'zini rivojlantirishning keyingi yo'llarini aniqlash.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan sinfdagi darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasidan foydalanishda o'quv materiallarni tushuntirishda o'qitish metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning dasturiy vositalari tarkibiga kiruvchi adaptiv, reproduktiv, kreativ kabi amaliy ko'nikmalar va malakalarni namoyish etishga yo'naltirilgan topshiriqlar muhim o'rin tutishi aniqlandi. Integrallashgan testlar va korresksiyalash elementlarini kiritish esa informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha sinfdagi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” umumta'lim fani bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda “Samarali amaliy loyiha”, “Virtual xarita” va “Harakatlarni kodlash” kabi ta'lim texnologiyalarini qo'llash yuqori natija ko'rsatdi. Mashg'ulotlarda nomi yuqorida qayd etib o'tilgan ta'lim texnologiyalari orqali Lego WeDo2.0, Lego Mindstorms, Arduino, VEX Robotics, Tetrax lardan foydalanib yaratilgan innovatsion o'quv kontentlari (video-ma'ruza, yo'riqnomali videodars, robot modelini bosqichma-bosqich yaratishga asoslangan video dars, ta'limiy o'yinlar, taqdimotlar) dan foydalangan holda mustahkamlandi.

I. «Virtual xarita» texnologiyasi. O'quvchilar ta'lim olish davrida loyihalash ishlarini amalga oshira olishlari uchun nafaqat robototexnika dasturlari bilan tanish bo'lishlari, shu bilan birga, ular yordamida amaliy harakatlarni tashkil etish


malakalarini ham o'zlashtirib olishlari zarur. O'quvchilar loyihalashdan iborat topshiriqlarni bajarishga jalb etishdan avval ularning loyihalash imkoniyatiga ega bo'lgan robototexnika dasturlari bilan samarali ishlash malakalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. «Virtual xarita» texnologiyasi ana shu maqsadga xizmat qiladi. Mazkur xarita «Shartli belgilar → uni o'qish = harakatlar» formulasiga asoslanadi. Texnologiya o'z nomi bilan ma'lum o'quv materiallarini loyihalashtirish jarayonida bajariladigan barcha amallarni bosqichma-bosqich tegishli shartli belgilar asosida yoritilishini ko'zda tutadi.

II. «Harakatlarni kodlash» texnologiyasi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni robototexnika dasturlari bo'yicha aniq harakatlarni kod «shartli belgilar» vositasida ifodalay olishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar «Virtual xarita»da o'quvchilar shartli belgi (kod) lar asosida qanday amaliy harakatlarni tashkil etish zarurligini anglay olgan bo'lsalar, ushbu texnologiya yordamida amaliy harakatlar so'zlar yordamida (m: «Nuqta qo'yish» deya ifodalansa, u holda o'quvchi belgini ko'rsata olishi va u yordamida amaliy harakatni kompyuterda bajarib berishi zarur bo'ladi) ifodalanadi. Mazkur texnologiyalar «Harakat mazmuni → shartli belgilar» tamoyiliga asoslanadi.

3. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Samarali amaliy loyiha" texnologiyasi "o'quvchiga taqdim etilgan maqsadli dastur, axborot banki, qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun o'quv-metodik ta'minotni qamrab olgan maxsus dasturga ega innovatsion ta'lim texnologiya hisoblanadi. Texnologiya o'quvchilarda guruh, jamoaviy va yakka holda ishlash, ijodiy, kreativ va tashabbuskorlik faoliyati, nazariy va amaliy bilimlarini amalda qo'llay olish va ishga ma'suliyat bilan yondashuvni xamda loyihalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu texnologiya tizimlilik, samaradorlik, innovatsion yondoshuvlarga asoslanganlik, hamkorlik, ko'rgazmalilik, dasturlashtirilganlik, kreativlik, individuallik tamoyillari asosida o'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti tubdan yangi asosda amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

O'quvchilarga loyihaga asoslangan ta'lim berish mazmuni, birinchi navbatda, jamiyatdagi turli sohalarida qo'llanilayotgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratilishi, ishlab chiqarishda tadbqiq qilinishing ilmiy asoslarini o'rganish orqali boyitish kerak. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish orqali uning optimalligini taminlash, mavzularni o'rganish davomida o'quvchilarni robototexnikaning dasturiy asoslari bilan tanishtirishga, turli yangi konstruksiyadagi robotlarni loyihalashtirishga, robototexnika qismlari bazasidan ongli va samarali foydalanishga, zamonaviy takomillashtirishga robot modellarini yaratish imkonini beradi.

Umumiy o'rta maktab o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarda robototexnikaning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish modeli o'quvchilarning loyihalash faoliyatiga aloqador bo'lgan parametrlar va indikatorlar daraja ko'rsatgichlarining mazmuniy yaroqliligi, ishonchliligi va optimatligini strategik prognozlash asosida ishlab chiqildi (1-rasm). Modelni ishlab chiqish jarayonida o'quvchilarda loyihalash madaniyatini rivojlantirish strategiyasi ya'ni strategik prognozlash asos sifatida olingan. Modelda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositalaridan foydalanib amalga oshirish ketma-ketligi, uning tarkibiy qismlarini batafsil yoritilgan.



1-rasm: Oʻquvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish modeli.

Modelda umumiy o'rta ta'lim maktablari fan dasturlari mazmuniga muvofiq o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish maqsad qilib belgilangan.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha sinfdagi dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnikaning ta'limiy imkoniyatlaridan foydalanish esa o'z navbatida, o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalari ishlashga oid bilimlarga ega bo'lishiga, ularda loyihalash faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiladi. Ana shularni e'tiborga olgan holda tadqiqotda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari ta'limiy imkoniyatlarini pedagogik jarayonga integrallash orqali raqamli ta'lim muhitida o'quvchilar loyihalash madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari aniqlashtirildi.

Informatika va axborot texnologiyalari mashg'ulotlarida o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirishda robototexnika qurilmalaridan foydalanish, o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalarni ishlashi to'g'risida yetarli bilimlarga ega bo'lishlarini, turli texnik qurilmalarni loyihalash va yasashga oid kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladi. Dissertatsiyada 5- 7 sinflarda o'qitiladigan informatika va axborot texnologiyalari umumta'lim fani bo'yicha "Axborot kodlash. Axborot o'lchov birliklari" (5- sinf), "Grafik muxarrirlarda sodda tasvirlar yaratish" (5 sinf), "Qidiruv tizimlari va Internetda ma'lumot izlash" (6- sinf), "Elektron pochta xabar almashish" (6-sinf), "Sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqa sanoq sistemasiga o'tkazish" (7-sinf), "Animatsiya tushunchasi va uning turlari" (7 sinf) mavzularini o'qitish metodikasi keltirib o'tilgan.

Maktab o'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan ham didaktik, ham tarbiyaviy xususiyatga ega faoliyat ko'rinishidir.

Mazkur faoliyatning didaktik mohiyati o'qituvchining o'quvchilarni robototexnikaning didaktik imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish, bu haqida ularga tushunchalar berishida, tarbiyaviy jihati esa shaxsda berilgan topshiriqlarni bajarishga nisbatan ijodiy yondashish ko'nikma, malakalari hamda loyihalash madaniyatini shakllantirib, bosqichma-bosqich, izchil, tizimli tarzda rivojlantirishda aks etadi. Qolaversa, o'quvchilarda loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishi zamonaviy sharoitda tobora dolzarb kasb etib borayotgan ijtimoiy ehtiyojning qondirilishidan dalolat beradi. Ushbu holat ham jarayonning tarbiyaviy mohiyatini ifodalaydi, zero, har qanday tarbiyaviy harakat, eng avvalo, ijtimoiy ehtiyojni qondirishdan iborat.

O'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ham muayyan jarayonda kechadi. Mohiyatiga ko'ra, turli ko'rinishdagi jarayonlar shunchaki sodir bo'lmaydi, balki quyidagi tashkiliy-texnologik masalalarni hal qilish orqali amalga oshirilishini aniqladik: I. Rejalashtirish. II. Tashkillashtirish. III. Yo'naltirish. IV. Axborot berish. V. Nazorat qilish. VI. Natijalarni tahlil qilish va

o'quvchilar faoliyati samaradorligini baholash. VII. Tashxislash (istiqbolli rejalarni ishlab chiqish, taktik loyihani yaratish).

O'quvchilarning loyihalash borasidagi faoliyatlarini kuzatish, o'quv topshiriqlarining bajarilish natijalarini tahlil qilish asosida pedagogik faoliyat samaradorligini quyidagi mezonlar yordamida aniqlash mumkin, degan xulosaga kelindi: o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining faoliyatning aniq maqsad asosida tashkil etilganligi; uni tashkil etishda avvaldan qo'lga kiritiladigan natijaning yaqqol tasavvur qilinganligi; o'quv-bilish faoliyatni tashkil etishda tasodifiy vaziyatlarning e'tiborda tutilganligi; o'qituvchi tomonidan faoliyatni olib borishda o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarining inobatga olinganligi; o'quv-bilish faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashilganlik; uni yo'lga qo'yishda fanlararo aloqadorlik va hamkorlik tamoyiliga tayanilganlik; pedagogning faoliyatini tashkil etishda yuzaga kelgan sharoitga ko'ra tezkor moslasha olishi.

O'quvchilarning loyihalash madaniyatini robototexnikaning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishda asosiy e'tibor mavzuning to'g'ri tanlanishiga qaratildi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsadi va vazifalari, mazmuni, statistik tahlili va samaradorlik darajasi haqidagi fikrlar yoritilgan.

